Bilim
Innovatsiya
Barqaror rivojlanish

Oktabr
№10, 2026

AGROBIZNES, FAN VA TEXNOLOGIYALAR

ILMIY-AMALIY
ELEKTRON
JURNALI

Агробизнес, наука и технологии

Agribusiness, science and technology



№ 083688

ISSN:
3060-5245

Toshkent-2026

Platform & workflow by
OJS / PKP

BOSH MUHARRIR
Oblomuradov Narzullo Naimovich – i.f.d. (DSc), professor.
Bosh muharrir o'rinbosarlari:
Islamov Soxib Yaxshibekovich – q.x.f.d. (DSc), professor.
Sultonov Kamoliddin Sadriddinovich – q.x.f.d. (DSc), professor.
Farmonov To'lqin Xayitmurodovich – i.f.d. (DSc), professor.
Muharrir:
Beglayev Uchqun Xurramovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent.
Tahrir hay'atining xalqaro a'zolari:
Kusainov Xalel Xaymullayevich – i.f.d. professor (Qozog'iston davlat texnologiya universiteti)
Vilija Aleknevičienė – i.f.d. professor (Universitet Vitovta Velikogo)
Gilbert Ludwig – professor, (Jamk University of Applied Sciences)
Bobojonov Ixtiyor Baxtiyorovich – i.f.d. professor (Germaniyaning Leybnits nomidagi Markaziy Osiyoda qishloq xo'jaligini rivojlantirish instituti (IAMO))
Daiva Makutenene – professor, (Vitautas Magnus universiteti, Litva)
Xaitboyeva Nargiza Alikulovna - i.f.d. dotsent (Tojikiston davlat huquq, biznes va siyosat universiteti)
Tahrir hay'ati:
08.00.00-Iqtisodiyot fanlari:
Gulyamov Saidasror Saidaxmedovich – i.f.d. (DSc), professor;
Saidov Muxammad-Ali Xakimovich – i.f.d. (DSc), professor;
Rustamova Iroda Baxramjanovna – i.f.d. (DSc), professor;
Ochilov Ilhom Sayitqulovich – i.f.d. (DSc), professor;
Askarov Nazimjon Niyozovich – i.f.d. (DSc), professor;
Abdullayev Altinbek Yangibayevich – i.f.d. (DSc), professor;
Boltayev Abror Sayitmuradovich – i.f.d. (DSc), dotsent;
Abduvasikov Abduaziz Abdulazizovich – i.f.n. professor;
Mamadiyarov Dilshad Uralovich – i.f.n. dotsent;
Achilov Mashrab Ulug'bekovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Galimova Feryuza Rafikovna – i.f.n. dotsent;
Odilova Dilnozaxon Barnayevna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Yangiboyev Dilshod G'ulomovich – i.f.f.d. (PhD);
Saidova Dildora Nurmatovna – i.f.n. dotsent;
Dexkanova Nilufar Sagdullayevna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Roziqov Jahongir Mustaqim o'g'li – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Boltayev Nurali Shiramatovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Ibragimova Madina Ismoilovna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Javliyev Nuriddin Bektemir o'g'li – i.f.f.d. (PhD).

06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari:
Shokirov Alisher Djuraboyevich – q.x.f.d. (DSc), professor;
Mardanov Husniddin Xolbozorovich – q.x.f.d. (DSc);
Abdiyev Fozil Rashidovich – q.x.f.d. (DSc);
Sattorov Maqsud Axtamovich – q.x.f.d. (DSc);
Yuldashov Nurbek Ergashovich – v.f.d. (DSc);
Xalmirzayev Dilmurad Kamilovich – q.x.f.d. (DSc), dotsent;
Namazov Ixtiyor Choriyevich – q.x.f.d. (DSc), professor;
Xudayqulov Jonibek Bozarovich – q.x.f.d. (DSc), professor;
Eshonqulov Jamoliddin Saporboy o'g'li – q.x.f.d. (DSc), professor;
Abdullayev Anvar Kodirullayevich – b.f.n., katta ilmiy xodim;
Atabayev Ma'ruf Maxmudovich – q.x.f.n. professor;
Safarov Asqar Asadullayevich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;
Mustafakulov Davron Mamatqulovich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;
Kasimov Botir Sadriddinovich – q.x.f.f.d. (PhD);
Akramov Umidilla Ikramdjanovich – q.x.f.n. dotsent;
Elboboyev Abdug'ani Shuxrat o'g'li – q.x.f.f.d. (PhD);
Muxammadov Yo'ldoshbek Akmal o'g'li – q.x.f.f.d. (PhD);
Maxmudova Shaxnoza Abdufattaxovna – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;
Idrisov Xusanjon Abdujabborovich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent.

MUASSIS
Toshkent davlat agrar universiteti

ALOQA UCHUN MA'LUMOTLAR
Manzil: Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko'chasi, 2-uy.
Jurnalning telegram manzili:
t.me/agrobiznes_elektronjurnal
E-mail: licht-1989@mail.ru
Jurnalning rasmiy sayti:
https://www.agrobiznesjournal.uz
Tel: +(998) 93 439 30 00

JURNALNING ILMIYLIGI:

Ma'lumot uchun, OAK Rayosatining 30.11.2024-yildagi №364/5-sonli qarori bilan 08.00.00-Iqtisodiyot fanlari bo'yicha, 08.05.2025-yildagi №370/5-sonli qarori bilan 06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga kiritilgan.

Elektron nashr, 1107 sahifa.
2026-yil, №10. oktabr.

Jurnal har oyda bir marotaba elektron shaklda jurnalning rasmiy sayti orqali nashr etiladi.

MUNDARIJA

IQTISODIYOT FANLARI

KONSTANTIN IVANOVICH KURPAYANIDI
Green energy transition in Central Asia: capacity growth, technological diversification and system constraints.....11
TURSUNKULOVA GULCHIROY BURXONOVNA
Meva-sabzavotchilik korxonalarida biologik aktivlarni hisobga olishni xalqaro standartlar asosida takomillashtirish.....24
MO‘MINOV ABDUVALI AKBARALIEVICH, DJO‘RAEV MUQIMJON YAQUBJONOVICH
Tritikale seleksiyasida molekulyar markerlardan foydalanishning iqtisodiy samaradorligi: QTL, SSR, SNP va KASP yondashuvlari asosida.....30
KARIMOV NURBEK DEXKANOVICH
Yeryong‘oq yetishtirishda oqqanotga qarshi kimyoviy himoya tadbirlarining iqtisodiy samaradorligini baholash.....43
SAYIPOV BEGZOD RAHIMOVICH
Valyuta kursi tebranishlari indeksini hisoblash va baholash.....53
KARIMOV NURBEK DEXKANOVICH
Yeryong‘oq ekinlarida o‘rgimchak kanaga qarshi kimyoviy kurash choralarining iqtisodiy samaradorligini baholash.....63
SHOMURODOV TOHIR BOYMUROD O‘G‘LI
Oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashda aholi daromadlarining o‘rni haqidagi nazariy yondashuvlar.....73
МУСТАФОКУЛОВА ЗАРИФА
Сравнительный анализ лидерства в условиях кризиса и роль молодых лидеров в развитии.....80
BOZOROVA MUHABBAT TOXTAYEVNA
Korxonalarda davr xarajatlarining iqtisodiy mohiyati, mazmuni va tasnifi.....87
RAXIMJONOVA SHOHSANAM BAXODIROVNA
Davlat-xususiy sheriklik asosida ijtimoiy soha infratuzilmasini rivojlantirishda "Value for Money" (VfM) baholash mexanizmini takomillashtirish.....95
QURBANOVA OYDIN TO‘LQIN QIZI
Ishlab chiqarish korxonalari raqobatbardoshligini baholashning integral ko‘rsatkichini shakllantirish.....101
SADIKOVA SHOHIDA OBIDQUL QIZI
O‘zbekistonda piyoz yetishtirishning iqtisodiy o‘rni va samaradorligi.....108
XAKIMOV RASHID
Oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlashda sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalarning o‘rni va samaradorligi.....119
TOJIMATOV IZZATBEK IKROMALI O‘G‘LI
Don mahsulotlari ishlab chiqarish korxonalarida intellektual marketing strategiyasini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish.....133
SODIQOVA GAVHAR XAYRULLA QIZI
Xodimlarni boshqarishda raqamli texnologiyalardan foydalanish samaradorligi.....142
ERGASHEV ASADBEK ULUG‘BEK O‘G‘LI, TURSUNOV G‘IYOS SUNNAT O‘G‘LI
Meva-sabzavotlarni qayta ishlashda hosil bo‘ladigan ikkilamchi resurslarni biotexnologik qayta ishlash va ulardan samarali foydalanish.....148

RASULOV XAMIDJON YAKUBOVICH
Raqamli texnologiyalar va CRM tizimlarining kichik biznesdagi o‘rni.....155
BOZOROVA MUHABBAT TOXTAYEVNA
Korxonalarda davr xarajatlarini buxgalteriya hisobini tashkil etish va uning tahlili.....168
YULDASHOV ABDUMALIK ILXOMOVICH
Ekoturizmning hududiy iqtisodiy rivojlanishga ta’sirini ekonometrik baholash.....185
YULDASHOV ABDUMALIK ILXOMOVICH
Ekoturizmning hududiy iqtisodiy rivojlanishdagi rolini baholashning nazariy-metodologik asoslari.....192
MUHAMMADIEV NAUFALBEK AZIZXON O‘G‘LI
Elektron tijoratda sun’iy intellektdan foydalanishning kichik biznes savdo hajmiga ta’siri.....202
АБДУЛЛАЕВ АКМАЛЖОН АБДУЖАЛИЛОВИЧ
Процедура нормирования частных показателей при оценке ресурсного потенциала аграрного сектора: сравнительный анализ методов и обоснование выбора.....210
XASANOVA RUXSORA RASULJON QIZI
O‘zbekistonda elektron tijoratni rivojlantirishning hududiy xususiyatlari va iqtisodiy samaradorligini oshirish.....223
UMAROVA XUSNORA DILMUROD QIZI
Orolbo‘yi mintaqasida xizmat ko‘rsatish korxonalarini moslashuvchan (adaptiv) boshqarishning ma’lumotlarga asoslangan modelini takomillashtirish.....229
АБДУЛЛАЕВ АКМАЛЖОН АБДУЖАЛИЛОВИЧ, ХОЛБЕКОВ ЖУРЪАТ АБДИНАБИЕВИЧ
Теоретико-методологические основы оценки ресурсного потенциала аграрного сектора: концептуальный подход и методика интегральной оценки.....234
UMARALIYEV DIYORBEK SHUKIRALI O‘G‘LI
Tomchilatib sug‘orish texnologiyasini joriy etishning fermer xo‘jaliklari xarajat va daromadlariga ta’siri: subsidiya samaradorligining iqtisodiy bahosi (2019–2025 yillar).....247
MIRAXMEDOVA KAMOLA
O‘zbekistonda turizm korxonalarini strategik boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish.....254
RAVSHANOVA ORZIGUL INOYAT QIZI
O‘zbekistonning xalqaro soliq tizimiga integratsiyasi: BEPS minimum standartlari va ularning milliy soliq siyosatidagi ahamiyati.....261
IRGASHEV ABBOS JUMANAZAROVICH
Anor yetishtirish va sotish qiymat zanjirida ishtirokchilarning daromadlari ulushini iqtisodiy baholash.....274
BAXADIR ADILCHAEV
Agroturizm qishloq iqtisodiyotini diversifikatsiya qilish va hududlarning barqaror rivojlanish vositasi sifatida.....283
XO‘JAMOVA LATOFAT ASADULLAEVNA
Yashil iqtisodiyot sharoitida agrobiznesda innovatsion jarayonlarni boshqarishning o‘ziga xos xususiyatlari.....290
BOZOROV BOBUR HAQBERDIYEVICH
Qurilishni moliyalashtirish samaradorligiga narx omillarining ta’sirini ekonometrik baholash.....297
RAVSHANOVA ORZIGUL INOYAT QIZI
Chegaralararo soliq munosabatlari: muammolar va rivojlanish istiqbollari.....307

KILICHEV ALISHER AKRAMOVICH
O‘zbekiston kimyo sanoati aksiyadorlik jamiyatlarida mavsumiylikning moliyaviy barqarorlikka ta’siri: panel tahlil (2018–2026-yillar)……322
IRGASHEV ABBOS JUMANAZAROVICH
Surxondaryo viloyatida anor ishlab chiqarish va sotish samaradorligini oshirish imkoniyatlari……331
ЛЯМКИНА ВИКТОРИЯ АЛЕКСАНДРОВНА, НАБИЕВА АНОРГУЛ МУХАМЕТКАЗИЕВНА
Механизмы трансформации и управления предпринимательским университетом в условиях цифровой экономики……338
YUSUFALIYEV OLIMJON ABDURAXMONOVICH
Aholi farovonligini oshirishda tadbirkorlik faoliyati samaradorligini baholash metodologiyasini takomillashtirish……347
SAYITQULOV JAHONGIR ILHOMOVICH
Tijorat banklarida raqamli bank xizmatlarini takomillashtirish istiqbollari……358
KILICHEV ALISHER AKRAMOVICH
Mavsumiy moliyaviy siklni identifikatsiyalash va moliyaviy barqarorlikning mavsumiy tuzatilgan ko‘rsatkichlari (mineral o‘g‘itlar ishlab chiqaruvchi korxona misolida)……365
QODIROV ZOHIDJON ERALIEVICH
Suv resurslarini boshqarishning iqtisodiy mohiyati va tamoyillari……373
ZAFAR QODIROV ABDIVAXOBOVICH
Long-term asset valuation and accounting in Uzbekistan: a comparative analysis of national accounting standards……381
SHAVQIDINOVA DILNAVOZ
AQSH va Yevropa ittifoqi mamlakatlari organik meva-sabzavotlar sertifikatlaridagi farqlar……389
KUBAYEV DJASUR ABDUMUMINOVICH
Iqtisodiyotni raqamlashtirishda yer resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish omillari……395
IBODILLAYEV HABIBULLA ABDULLAYEVICH
Madaniy meros obyektlarida turizm tadbirkorligini rivojlantirish orqali aholi bandligini ta’minlash yo‘llari……401
SHAVQIDINOVA DILNAVOZ
IFOAM – organics international: organik standartlar, sertifikatlash, organik bozor va siyosat bo‘yicha statistik tahlili……407
MAYLIYEVA SADOQAT SAFAYOZOVNA
Mintaqada tadbirkorlik salohiyatidan samarali foydalanishning ustuvor yo‘nalishlari (Xorazm viloyati misolida)……413
SHIRINOV UCHQUN ABDUXALILOVICH
MHXS talablari asosida tashqi segmentar hisobotni shakllantirish metodikasi..421
ABDINAZAROV XUSAN SHAYMANOVICH, NORQOBILOVA FERUZA ABDUXOMIDOVNA
Klasterlash va infratuzilma o‘rtasidagi bog‘liqlikni ekonometrik modellashtirish……430
SA’DULLAYEVA SAYYORA NASILLO QIZI
Neft-gaz sanoati korxonalarida moddiy xarajatlarning kompleks tahlili……439
ABDINAZAROV XUSAN SHAYMANOVICH, NORQOBILOVA FERUZA ABDUXOMIDOVNA
Klasterlashni rivojlantirishning tashkiliy mexanizmlari……447

SATTAROV SHUXRAT XASANOVICH
O‘zbekistonda xizmatlar sohasining rivojlanishi va diversifikatsiya tendensiyalari.....458
KAMALKARIEVA NILUFAR XALIKBEKOVNA
Qurilish materiallari korxonalarida yangi mahsulotlarni o‘zlashtirish va sifatni oshirishning iqtisodiy samaradorligini baholash.....467
СЕЙТНАЗАРОВ БАХАДИР МУРАТБАЕВИЧ
Экономическая оценка устойчивого развития аграрного сектора в условиях дефицита водных ресурсов (на примере Республики Каракалпакстан).....475
TURDIYEV ULUG‘BEK QAYUMOVICH
Sanoat o‘sishining uzoq muddatli rivojlanish tendensiyalarini aniqlash.....484
OBLOQULOV ABDURAUF OLIMJON O‘G‘LI
Institutsional iqtisodiyot va iqtisodiy o‘sish: rasmiy va norasmiy institutlarning roli.....493
JUMANAZAROV KODIRJON SALYAYEVICH
Sanoat korxonalarida raqamli strategiyani shakllantirishning metodologik yondashuvlari.....501
NARMAMATOV IXTIYAR BAXTIYAROVICH, SHERMATOVA NARGIZA ZAFAR QIZI
Zamonaviy bozor sharoitida xizmat ko‘rsatish sohasi subyektlarining iqtisodiy barqarorligini ta’minlash strategiyalari.....512
ALIYEV AZIM TOLIB O‘G‘LI
Aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatini boshqarish usullari va uslublarini takomillashtirish: nazariy-amaliy tahlil va modellashtirish.....518
ABDULLAYEVA AZIZA MURAT QIZI
Ipoteka kreditlashning nazariy asoslari va xorijiy modellari: AQSH, Germaniya, Qozog‘iston va Malayziya tajribasi.....528
YUNUSOV BEGENCH MAVLANBERDIEVICH, MINASIPOV BURXAN BAXTIYOROVICH
Suv xo‘jaligi infratuzilmasidan samarali foydalanish — iqtisodiy barqarorlikning muhim omili.....539
АЙТБАЕВА ГУЛЬЗАДА КУАНЫШБАЕВНА
Эффективные механизмы государственно-частного партнерства в сфере услуг.....546
SADIQOV ZAFARBEK ADILBEKOVICH
Banklarda likvidlik ko‘rsatkichlarini buxgalteriya hisobi ma’lumotlari asosida tahlil qilish.....554
ODILOVA DILNOZA BARNAYEVNA
Milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirishda intellektual kapitalning ko‘p omilli ta’sir mexanizmini takomillashtirish.....563
IBODULLAYEV DOSTON SOBIRJON O‘G‘LI, DJURAYEV BEKZOD BEKMATOVICH
Sutchilik fermer xo‘jaliklarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmini takomillashtirish va ozuqa bazasini rivojlantirish istiqbollari.....574
QULMATOV CHORI ANOROVICH
Korxonalar moliyasini nazorat qilishning uslubiy asoslari.....582
YAKUPOVA AYZADA NIZAMATDINOVNA
Agrar sohada barqaror rivojlanish mexanizmlarining xorijiy tajribasi va uni O‘zbekiston sharoitiga moslashtirish.....590
XUDAYBERGANOV ZOXIDJON DJURAKULOVICH
Xizmat sohasida raqobatbardoshlik nazariyalari evolyutsiyasi va ularning raqamli iqtisodiyotdagi talqini.....602
XONTO‘RAYEV IBROXIM ABDIKAMOL O‘G‘LI
Oliy ta’limda sun’iy intellekt asosidagi intellektual axborot tizimlaridan foydalanish.....613

ATANIYAZOVA MAKSUDA BALTABAYEVNA
Zamonaviy texnologiyalar va innovatsiyalar davrida davlat-xususiy sheriklikning mohiyati.....622
KARIMOV JAMSHID NIZOMIDDIN O‘G‘LI
Mamlakatimiz kichik sanoat zonalarini rivojlantirishda xorij tajribasidan foydalanish imkoniyatlari.....633
JUMABOYEV DILMUROD ABDIFATTO O‘G‘LI
Quyosh va shamol elektr stansiyalari samaradorligini uch qatlamda baholash.....641
BO‘RIBAYEVA QUNDIZ MURATBAYEVNA
O‘zbekistonda fermer xo‘jaliklari mahsulotlari hajmini prognozlash: TREND modeli yondashuvi.....649
ATANIYAZOVA MAKSUDA BALTABAYEVNA
Davlat iqtisodiyotining rivojlanish evolyutsiyasida davlat-xususiy sheriklikning o‘rni va ahamiyati.....657
КЕНДЖАЕВА ДИЛДОРА ХУДАЙБЕРГАНОВНА
Объяснимый искусственный интеллект (XAI): обеспечение прозрачности и доверия пользователей в образовательных решениях — концептуальная модель.....666
IBRAGIMOV SIROJIDDIN BAXODIROVICH
Davlat ishtirokidagi real sektor korxonalarining moliyaviy holatini yuksaltirishga salbiy ta’sir etuvchi omillar, ularni bartaraf etish va moliyaviy resurslardan samarali foydalanish mexanizmlari.....676
AHMEDOV SHOHJAHON
ROPO (onlayn o‘rganib, oflayn xarid qilish) effektini hisobga olgan chakana savdo marketing strategiyasini shakllantirishning metodologik asoslari.....684
ЖУМАНИЯЗОВА ДУРДОНА
Юқори тартибли операторли тенгламалар ечимларининг умумлаштирилган ХАРТОГС қаторларига ёйилмаси.....694
ISAHANOV MUSLIMJON MARIFJON O‘G‘LI
Tuproq unumdorligini oshirishni iqtisodiy rag‘batlantirishda agroekologik to‘lovlar va eko-sxemalarning ahamiyati: Yevropa ittifoqi tajribasi.....705
DEXKANOVA SHAXLOXON SAGDIYEVNA
Sabzavotchilikda biologik aktivlarni baholash va moliyaviy natijani shakllantirishni 41-son BHXS ga muvofiq takomillashtirish.....710
КАДЫРОВ АБДУКАДЫР АМАНОВИЧ
Обеспечение экономической безопасности системы корпоративного управления акционерных компаний Республики Узбекистан.....715
XUDAYAROV OYBEK ODILOVICH
Tijorat banklari biznes modellarini transformatsiya qilishda raqamli bank xizmatlarining o‘rni.....724
XUJANOV ELBEK
Oliy ta’limda LMS asosida talabalar davomati va o‘zlashtirishini monitoring qilish: amaliy yondashuv.....731
MUXAMMADSIDIQOV OTABEK DILSHODBEK O‘G‘LI
Kichik biznesda inqiroz xavfini aniqlashning moliyaviy diagnostika usullari.....740
KADIROV SAXOBIDDIN SHAROFOVICH
Investitsiyalar hisobida xalqaro standartlardan foydalanish.....748
ISAKHANOV MUSLIMJON MARIFJON UGLI
Mechanisms for economic incentives for cultivating cover crops to increase soil fertility: US experience.....754

UO‘K: 336.64:334.722

DAVLAT ISHTIROKIDAGI REAL SEKTOR KORXONALARINING MOLIYAVIY HOLATINI YUKSALTIRISHGA SALBIY TA’SIR ETUVCHI OMILLAR, ULARNI BARTARAF ETISH VA MOLIYAVIY RESURSLARDAN SAMARALI FOYDALANISH MEXANIZMLARI

IBRAGIMOV SIROJIDDIN BAXODIROVICH
Toshkent iqtisodiyot va texnologiyalar universiteti dotsent v.b.
E-mail: sirojiddinbakhadirovich@mail.ru
ORCID: 0009-0006-3354-0339

Annotatsiya. Davlat ishtirokidagi real sektor korxonalarining moliyaviy holatiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi omillar, ularni bartaraf etish yo‘nalishlari hamda moliyaviy resurslardan samarali foydalanish mexanizmlari tadqiq etilgan. Tadqiqotning maqsadi davlat ulushi mavjud korxonalarning moliyaviy barqarorligini ta’minlash, moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish va davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning bozor tamoyillariga asoslangan mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqotda tizimli, qiyosiy va institutsional tahlil, moliyaviy koeffitsiyentlar usuli hamda sabab-oqibat tahlilidan foydalanildi. Tadqiqot natijalari davlat korxonalarining moliyaviy holatiga yumshoq budjet cheklovlari, boshqaruvdagi institutsional nomuvofiqliklar, yuqori qarzdorlik, asosiy vositalarning eskirishi, investitsion resurslardan samarasiz foydalanish hamda tijorat va ijtimoiy funksiyalarning aralashib ketishi salbiy ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatdi.
Kalit so‘zlar: davlat ishtirokidagi korxonalar, real sektor, moliyaviy barqarorlik, moliyaviy resurslar, korporativ boshqaruv, rentabellik, likvidlik, qarzdorlik, davlat aktivlari, moliyaviy samaradorlik.

Аннотация. В статье исследуются факторы, негативно влияющие на финансовое состояние предприятий реального сектора с государственным участием, направления их устранения, а также механизмы эффективного использования финансовых ресурсов. Цель исследования заключается в разработке научно-практических предложений по обеспечению финансовой устойчивости предприятий с государственным участием, повышению эффективности использования финансовых ресурсов и совершенствованию механизмов государственной поддержки на основе рыночных принципов. В исследовании использованы системный, сравнительный и институциональный анализ, метод финансовых коэффициентов и причинно-следственный анализ. Результаты исследования показывают, что на финансовое состояние государственных предприятий негативно влияют мягкие бюджетные ограничения, институциональные проблемы управления, высокая долговая нагрузка, износ основных средств, неэффективное использование инвестиционных ресурсов, а также совмещение коммерческих и социальных функций.
Ключевые слова: государственные предприятия, реальный сектор, финансовая устойчивость, финансовые ресурсы, корпоративное управление, рентабельность, ликвидность, долговая нагрузка, государственные активы, финансовая эффективность.

Abstract. This article examines the factors negatively affecting the financial condition of state-owned enterprises in the real sector, measures to eliminate these factors, and mechanisms for efficient use of financial resources. The purpose of the study is to develop scientific and practical recommendations aimed at strengthening the financial sustainability of state-owned enterprises, improving the efficiency of financial resource utilization, and enhancing state support mechanisms based on market principles. The research applies systemic, comparative and institutional analysis, financial ratio analysis and cause-and-effect analysis. The results demonstrate that soft budget constraints, institutional weaknesses in corporate governance, high debt burdens, depreciation of fixed assets, inefficient allocation of investment resources, and the combination of commercial and social functions negatively affect the financial performance of state-owned enterprises.
Keywords: state-owned enterprises, real sector, financial sustainability, financial resources, corporate governance, profitability, liquidity, debt burden, state assets, financial efficiency.

2026-yil, oktabr.
№10-son.
ISSN: 3060-5245

KIRISH

Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalarning moliyaviy barqarorligi mamlakat iqtisodiy o‘sishining muhim omillaridan biridir. Ayniqsa, davlat ishtirokidagi real sektor korxonalari strategik tarmoqlarda faoliyat yuritishi, infratuzilmaviy xizmatlarni ko‘rsatishi, yirik investitsiya loyihalarini amalga oshirishi va iqtisodiyotning boshqa subyektlari uchun muhim resurslarni yetkazib berishi sababli ularning moliyaviy holati nafaqat korxonaning o‘ziga, balki davlat budjeti, moliya bozori va umumiy makroiqtisodiy barqarorlikka ham ta’sir ko‘rsatadi.

Davlat korxonalarining iqtisodiyotdagi roli ko‘plab mamlakatlarda yuqori bo‘lib, ayniqsa energetika, transport, kommunal xo‘jalik, qazib chiqarish va infratuzilma kabi strategik tarmoqlarda ularning ulushi sezilarli hisoblanadi. OECD davlat korxonalarida samarali korporativ boshqaruv davlatning mulkdor sifatidagi roli, korxona boshqaruvining mustaqilligi, shaffoflik va hisobdorlik bilan chambarchas bog‘liqligini ta’kidlaydi [1].

O‘zbekistonda ham so‘nggi yillarda davlatning iqtisodiyotdagi ishtirokini qisqartirish, davlat aktivlarini xususiylashtirish, davlat korxonalarining operatsion samaradorligini oshirish va korporativ boshqaruvni takomillashtirish bo‘yicha tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, 2023-yil 1-martdagi PQ-83-son qarorda davlat ishtirokidagi yirik korxonalarni isloh qilish, korporativ boshqaruvni joriy etish, operatsion samaradorlik va ochiqlikni oshirish vazifalari belgilangan [9].

Shuningdek, davlat ishtirokini qisqartirishga qaratilgan 2024-yilgi chora-tadbirlarda xususiylashtirish, davlat aktivlarini ommaviy taklif qilish va iqtisodiyotda xususiy sektor ulushini oshirishning muhim yo‘nalishlari belgilangan [10].

Mazkur islohotlarga qaramay, davlat ishtirokidagi korxonalarning muayyan qismida moliyaviy barqarorlik bilan bog‘liq muammolar saqlanib qolmoqda. 2026-yilda Xalqaro valyuta jamg‘armasi tomonidan e’lon qilingan tadqiqotda O‘zbekistondagi 2 148 ta davlat korxonasi tahlil qilingan bo‘lib, ularning 982 tasi foydali faoliyat yuritayotgani qayd etilgan. Bu holat davlat korxonalari faoliyatining moliyaviy natijalari bo‘yicha sezilarli tafovutlar mavjudligini ko‘rsatadi. IMF tadqiqotida zararlar, ayniqsa, elektr energetikasi hamda uy-joy-kommunal xizmatlar va suv xo‘jaligi bilan bog‘liq davlat korxonalarida jamlangani ko‘rsatilgan. Bunda aholiga ko‘rsatiladigan ayrim xizmatlar xarajatlarining to‘liq qoplanmasligi muhim omillardan biri sifatida qayd etilgan. Shu nuqtai nazardan, davlat ishtirokidagi real sektor korxonalarining moliyaviy holatini yaxshilash faqat korxonaning ichki boshqaruvi bilan bog‘liq masala emas. Ushbu jarayon davlat mulkini boshqarish, fiskal siyosat, raqobat muhiti, investitsiya siyosati, korporativ boshqaruv va moliyaviy nazorat bilan bevosita bog‘liq [2; 11].

Tadqiqotning maqsadi davlat ishtirokidagi real sektor korxonalarining moliyaviy holatiga salbiy ta’sir etuvchi asosiy omillarni aniqlash, ularni bartaraf etish mexanizmlarini ishlab chiqish hamda moliyaviy resurslardan foydalanish

2026-yil, oktabr.
№10-son.
ISSN: 3060-5245

samaradorligini oshirish bo‘yicha ilmiy-amaliy takliflarni shakllantirishdan iborat. Tadqiqot vazifalari quyidagilar:

- davlat ishtirokidagi korxonalarning moliyaviy holatiga ta’sir qiluvchi omillarni tizimlashtirish;
- korxonalarning moliyaviy barqarorligini baholash mezonlarini aniqlash;
- davlat tomonidan moliyaviy qo‘llab-quvvatlashning ta’sirini tahlil qilish;
- korporativ boshqaruv va moliyaviy boshqaruvdagi muammolarni aniqlash;
- moliyaviy resurslardan samarali foydalanish mexanizmini ishlab chiqish.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Davlat korxonalari samaradorligi muammosi iqtisodiy adabiyotlarda keng o‘rganilgan. J. Kornai «yumshoq budjet cheklovi» tushunchasini ilgari surib, korxona zarar ko‘rgan taqdirda davlat uni qo‘llab-quvvatlashini kutishi menejmentning xarajatlarni nazorat qilish va samaradorlikni oshirishga bo‘lgan rag‘batini susaytirishini asoslagan [13]. J. Kornai, E. Maskin va G. Roland ushbu hodisaning sabab va oqibatlarini tizimlashtirib, u bozor iqtisodiyotidagi davlat korxonalari va banklarida ham uchrashini ko‘rsatgan [14].

A. Shleifer va R. Vishny davlat korxonalaridagi samarasizlikni siyosatchilarning korxonalarga ortiqcha bandlik kabi siyosiy maqsadlarni yuklashi bilan izohlaydi; bu maqsadlar subsidiyalar hisobidan moliyalashtirilib, korxonaning moliyaviy natijalarini yomonlashtiradi [15]. W. Megginson va J. Netter xususiylashtirish bo‘yicha empirik tadqiqotlarni umumlashtirib, xususiylashtirilgan korxonalarda rentabellik va samaradorlik odatda oshishini qayd etgan [16].

Xalqaro tashkilotlarning tadqiqotlarida institutsional jihatlarga alohida urg‘u beriladi. OECD davlat korxonalarida korporativ boshqaruv bo‘yicha tavsiyalarida davlatning mulkdorlik funksiyasini tartibga solish funksiyasidan ajratish, boshqaruvning operatsion mustaqilligi, shaffoflik va hisobdorlikni asosiy shartlar sifatida belgilaydi [1; 6–8; 12]. XVJ O‘zbekiston davlat korxonalari bo‘yicha tahlilida zararlar elektr energetikasi, uy-joy kommunal xizmatlar va suv xo‘jaligida jamlanganini hamda subsidiya, imtiyozli kredit va kafolatlar ko‘rinishidagi davlat yordami saqlanib qolayotganini ko‘rsatgan [2–4; 11]. Jahon bankining iqtisodiy memorandumida xususiy sektor yetakchiligidagi o‘sish va global integratsiyani rag‘batlantirish masalalari tahlil qilingan [5].

Shu bilan birga, mavjud tadqiqotlarda O‘zbekiston davlat ishtirokidagi real sektor korxonalarining moliyaviy holatiga ta’sir etuvchi omillarni yagona tizimga keltirish va ularni moliyaviy koeffitsiyentlar bilan bog‘lash masalasi yetarlicha yoritilmagan. Ushbu maqola mazkur bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Davlat ishtirokidagi real sektor korxonalarining moliyaviy holatini baholashda tizimli va institutsional yondashuvlardan va usullardan foydalanildi.

Tadqiqotning axborot bazasini XVJning O‘zbekiston davlat korxonalari bo‘yicha 2026-yilgi tahliliy materiallari [2–4; 11], OECDning davlat korxonalarida

2026-yil, oktabr.
№10-son.
ISSN: 3060-5245

korporativ boshqaruv bo‘yicha 2024-yilgi tavsiyalari [1; 6–8; 12], Jahon banki hisoboti [5] hamda O‘zbekiston Respublikasining me’yoriy-huquqiy hujjatlari [9; 10] tashkil etadi.

- Tizimli tahlil usuli - davlat korxonalarining moliyaviy holatini alohida ko‘rsatkichlar emas, balki o‘zaro bog‘liq moliyaviy va institutsional omillar tizimi sifatida o‘rganish imkonini berdi.
- Qiyosiy tahlil usuli - O‘zbekiston tajribasini xalqaro korporativ boshqaruv tamoyillari bilan solishtirish uchun qo‘llanildi.
- Moliyaviy koeffitsiyentlar usuli - likvidlik, moliyaviy mustaqillik va rentabellik ko‘rsatkichlarini baholash uchun foydalanildi.
- Institutsional tahlil - davlatning mulkdor, tartibga soluvchi organ va ayrim hollarda buyurtmachi sifatidagi funksiyalarining o‘zaro bog‘liqligini o‘rganishga xizmat qildi.

Korxonaning moliyaviy holatini baholashda quyidagi ko‘rsatkichlardan foydalanish mumkin.

Joriy likvidlik koeffitsiyenti:

JL = Joriy aktivlar / Joriy majburiyatlar

Mazkur ko‘rsatkich korxonaning qisqa muddatli majburiyatlarini joriy aktivlari hisobidan qoplash imkoniyatini ifodalaydi.

Moliyaviy mustaqillik koeffitsiyenti:

MMK = Xususiy kapital / Jami aktivlar

Ushbu ko‘rsatkich korxonaning qarz mablag‘lariga bog‘liqlik darajasini aniqlash imkonini beradi.

Aktivlar rentabelligi:

ROA = Sof foyda / Jami aktivlar × 100

Xususiy kapital rentabelligi:

ROE = Sof foyda / Xususiy kapital × 100

Davlat aktivlaridan foydalanish samaradorligini baholashda ROA ko‘rsatkichi alohida ahamiyatga ega. Chunki davlat korxonasining faqat foyda olishi emas, balki uning ixtiyoridagi katta hajmdagi aktivlarga nisbatan qanday iqtisodiy natija yaratishi ham muhim hisoblanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tahlil natijalariga ko‘ra, davlat ishtirokidagi real sektor korxonalarining moliyaviy holatiga ta’sir etuvchi omillarni to‘rt asosiy guruhga ajratish mumkin:

1. institutsional va boshqaruv omillari
2. moliyaviy-iqtisodiy omillar
3. operatsion va texnologik omillar
4. tashqi bozor omillari.

Birinchi muhim omil - yumshoq budjet cheklovi. Agar korxona zarar ko‘rgan taqdirda ham davlat tomonidan muntazam subsidiya, kredit kafolati, imtiyozli kredit yoki boshqa shakldagi yordam olishini kutsa, menejmentda xarajatlarni optimallashtirish va risklarni kamaytirishga bo‘lgan rag‘bat susayishi mumkin.

1-jadval

Davlat ishtirokidagi korxonalar moliyaviy holatiga salbiy ta'sir qiluvchi asosiy omillar

Omillar guruhi	Asosiy muammo	Moliyaviy natijaga ta'siri
Institutsional	Davlatning xo'jalik faoliyatiga ortiqcha aralashuvi	Qaror qabul qilish jarayoni sekinlashadi
Boshqaruv	Professional menejment va mustaqil nazoratning yetarli emasligi	Rentabellik pasayadi
Moliyaviy	Yuqori qarzdorlik va foiz xarajatlari	Pul oqimi zaiflashadi
Investitsion	Past samarali loyihalarga kapital yo'naltirilishi	Aktivlar rentabelligi pasayadi
Operatsion	Xarajatlarning yuqoriligi	Mahsulot tannarxi oshadi
Bozor	Raqobatning cheklanganligi	Samaradorlikni oshirish rag'bati kamayadi
Ijtimoiy	Tijorat va ijtimoiy vazifalarning aralashishi	Korxona zarariga olib kelishi mumkin
Texnologik	Eskirgan asosiy vositalar	Ishlab chiqarish samaradorligi pasayadi

Manba: muallif tomonidan ilmiy adabiyotlar va xalqaro tashkilotlar ma'lumotlari asosida ishlab chiqilgan [1; 2; 5].

IMFning 2026-yilgi tahlilida O'zbekiston davlat korxonalarining ayrimlari davlat tomonidan subsidiya, imtiyozli kredit va kafolatlar orqali qo'llab-quvvatlanayotgani qayd etilgan [2].

Ikkinchi muhim omil - davlatning mulkdorlik va tartibga solish funksiyalarining aralashib ketishi. OECD davlatning mulkdor sifatidagi funksiyasi tartibga solish va siyosat ishlab chiqish funksiyalaridan imkon qadar ajratilishi kerakligini ta'kidlaydi [1; 6].

Uchinchi omil - tijorat va ijtimoiy funksiyalarning bir korxonada jamlanishi. Korxona aholiga mahsulot yoki xizmatni bozor narxidan past narxda yetkazib berishga majbur bo'lsa, bu uning moliyaviy natijasini yomonlashtirishi mumkin. Bunday vaziyatda ijtimoiy vazifa korxona hisobidan emas, davlat budjeti orqali aniq va shaffof kompensatsiya qilinishi maqsadga muvofiq. OECD davlat korxonalarining davlat xizmatlari bilan bog'liq majburiyatlari alohida aniqlanishi, ushbu majburiyatlarning xarajatlari va daromadlari shaffof hisobga olinishi hamda sof xarajatlari tegishli tartibda moliyalashtirilishi kerakligini qayd etadi[8].

To'rtinchi omil - qarzdorlikning ortishi. Qarz mablag'lari ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va yuqori rentabelli investitsiya loyihalariga yo'naltirilsa, ijobiy samara berishi mumkin. Biroq qarzlar past rentabelli loyihalar yoki joriy xarajatlarni qoplashga sarflansa, foiz xarajatlari ortib, korxonaning pul oqimiga bosim kuchayadi.

2026-yil, oktabr.
№10-son.
ISSN: 3060-5245

Beshinchi omil - asosiy vositalarning eskirishi va texnologik samarasizlik. Real sektor korxonalarida asosiy fondlarning eskirishi ishlab chiqarish tannarxining oshishi, energiya sarfining ko‘payishi, mahsulot sifatining pasayishi va raqobatbardoshlikning zaiflashishiga olib kelishi mumkin.

Oltinchi omil – moliyaviy boshqaruvning yetarlicha rivojlanmaganligi. Moliyaviy rejalashtirishning faqat yillik budjet bilan cheklanishi, pul oqimlarini muntazam nazorat qilmaslik va investitsion loyihalarni diskontlangan pul oqimlari asosida baholamaslik resurslarning samarasiz taqsimlanishiga olib keladi.

Olingan natijalar ilmiy adabiyotlardagi xulosalarni tasdiqlaydi. Yumshoq budjet cheklovi va korxonaga siyosiy maqsadlar yuklanishi bo‘yicha nazariy qarashlar [13–15] O‘zbekiston davlat korxonalarida kuzatilayotgan subsidiya, imtiyozli kredit va kafolatlarga tayanish holatlari bilan mos keladi [2].

Davlat ishtirokidagi korxonalar moliyaviy holatini yaxshilash masalasida asosiy muammo ko‘pincha qo‘shimcha mablag‘ yetishmasligida emas, balki mavjud mablag‘larning samarali taqsimlanmasligida namoyon bo‘ladi. Shu sababli davlat tomonidan korxonalarni doimiy ravishda moliyalashtirish o‘rniga ularning iqtisodiy mustaqilligini oshirishga qaratilgan institutsional mexanizmlarni rivojlantirish zarur.

OECDning 2024-yilda yangilangan tavsiyalarida davlat korxonalari uchun davlat mulkdorining aniq strategiyasi, korxona boshqaruviga operatsion mustaqillik berish, professional direktorlar kengashini shakllantirish, muntazam hisobot va samaradorlik monitoringi kabi tamoyillar ilgari surilgan. Shuningdek, davlat korxonalari xususiy korxonalar bilan bir xil bozor sharoitida faoliyat yuritishi, davlat tomonidan beriladigan moliyaviy afzalliklar shaffof bo‘lishi va qarz hamda kapital moliyalashtirish imkoniyatlari bozor tamoyillariga yaqinlashtirilishi lozim [1; 7; 8].

O‘zbekiston sharoitida ushbu tamoyillarni joriy etishda birinchi navbatda davlat korxonasining maqsadi aniq belgilanib olinishi kerak. Agar korxona tijorat maqsadida faoliyat yuritsa, undan bozor tamoyillari asosida rentabellik talab qilinishi lozim. Agar korxonaga ijtimoiy vazifa yuklatilgan bo‘lsa, mazkur vazifaning moliyaviy qiymati hisoblanib, davlat budjeti tomonidan kompensatsiya qilinishi kerak. Bu yondashuv korxonaning real moliyaviy natijasini aniqlashga imkon beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot davlat ishtirokidagi real sektor korxonalarining moliyaviy holati ko‘plab o‘zaro bog‘liq institutsional, moliyaviy, operatsion va bozor omillari ta’sirida shakllanishini ko‘rsatdi. O‘zbekistondagi davlat korxonalari bo‘yicha 2026-yilgi IMF tadqiqotida [2] 2148 ta korxona tahlil qilingan bo‘lib, ularning 982 tasi foydali faoliyat yuritayotgani qayd etilgan. Ushbu ma’lumot davlat korxonalarining moliyaviy natijalari bo‘yicha sezilarli tafovut mavjudligini ko‘rsatadi. Davlat ishtirokidagi korxonalar moliyaviy holatining yomonlashishiga quyidagi omillar asosiy sabab sifatida ajratildi: yumshoq budjet cheklovlari,

2026-yil, oktabr.
№10-son.
ISSN: 3060-5245

davlatning xo‘jalik faoliyatiga ortiqcha aralashuvi, korporativ boshqaruvdagi kamchiliklar, yuqori qarzdorlik, asosiy vositalarning eskirishi, investitsiya loyihalarining yetarlicha baholanmasligi, moliyaviy rejalashtirishning zaifligi hamda tijorat va ijtimoiy funksiyalarning aralashib ketishi.

Umuman, davlat ishtirokidagi korxonalar moliyaviy holatini yaxshilashning ustuvor yo‘li davlat mablag‘lari hajmini oshirish emas, balki mavjud aktivlar va moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligini kuchaytirishdir. Korxonalarning tijorat maqsadlari, davlatning strategik manfaatlari va ijtimoiy majburiyatlarini aniq ajratish, bozor intizomi va boshqaruv hisobdorligini ta’minlash uzoq muddatli moliyaviy barqarorlikning asosiy sharti hisoblanadi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

- davlat korxonalarining maqsadini aniq belgilash: tijorat maqsadidagi korxonalardan bozor tamoyillari asosida rentabellik talab qilish, ijtimoiy vazifa yuklatilgan korxonalarda esa ushbu vazifaning moliyaviy qiymatini hisoblab, davlat budjetidan shaffof kompensatsiya qilish;
- davlatning mulkdorlik funksiyasini tartibga solish va siyosat ishlab chiqish funksiyalaridan ajratish, korxonalar boshqaruviga operatsion mustaqillik berish va professional direktorlar kengashlarini shakllantirish;
- yumshoq budjet cheklovini qisqartirish: subsidiya, kredit kafolati va imtiyozli kreditlar berishni shaffof, shartli va bozor tamoyillariga yaqin mexanizmga o‘tkazish;
- investitsiya loyihalarini diskontlangan pul oqimlari asosida baholash va pul oqimlarini muntazam nazorat qilishni joriy etish;
- korxonalarning moliyaviy holatini joriy likvidlik, moliyaviy mustaqillik, ROA va ROE ko‘rsatkichlari asosida muntazam monitoring qilish va natijalarni ochiq e’lon qilish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. OECD. OECD Guidelines on Corporate Governance of State-Owned Enterprises 2024. OECD Publishing, Paris, 2024. DOI: 10.1787/18a24f43-en.
2. International Monetary Fund. State-Owned Enterprises in Uzbekistan: Issues and Reform Options. IMF Selected Issues Papers, 2026, No. 058.
3. International Monetary Fund. Republic of Uzbekistan: 2026 Article IV Consultation – Staff Report. IMF Staff Country Reports, 2026.
4. International Monetary Fund. Uzbekistan: Staff Concluding Statement of the 2026 Article IV Mission. Washington, D.C., 2026.
5. World Bank. Uzbekistan – Country Economic Memorandum: Fostering Private Sector-Led Growth and Global Integration. World Bank, 2025.
6. OECD. OECD Guidelines on Corporate Governance of State-Owned Enterprises 2024: The State’s Role as an Owner. OECD Publishing, Paris, 2024.
7. OECD. OECD Guidelines on Corporate Governance of State-Owned Enterprises 2024: State-Owned Enterprises in the Marketplace. OECD Publishing, Paris, 2024.

8. OECD. OECD Guidelines on Corporate Governance of State-Owned Enterprises 2024: Disclosure, Transparency and Accountability. OECD Publishing, Paris, 2024.

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. “Davlat ishtirokidagi korxonalarni isloh qilish jarayonlarini jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-83-son qaror. 2023-yil 1-mart.

10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. “Iqtisodiyotda davlat ishtirokini qisqartirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-162-son qaror. 2024-yil 19-aprel.

11. International Monetary Fund. Republic of Uzbekistan: Selected Issues. IMF Staff Country Reports, 2026.

12. OECD. Corporate Governance of State-Owned Enterprises. OECD Policy Framework, Paris, 2024.

13. Kornai J. The Soft Budget Constraint // Kyklos. – 1986. – Vol. 39, No. 1. – P. 3–30.

14. Kornai J., Maskin E., Roland G. Understanding the Soft Budget Constraint // Journal of Economic Literature. – 2003. – Vol. 41, No. 4. – P. 1095–1136.

15. Shleifer A., Vishny R. W. Politicians and Firms // The Quarterly Journal of Economics. – 1994. – Vol. 109, No. 4. – P. 995–1025.

16. Megginson W. L., Netter J. M. From State to Market: A Survey of Empirical Studies on Privatization // Journal of Economic Literature. – 2001. – Vol. 39, No. 2. – P. 321–389.

2026-yil, oktabr. №10-son.

Mas’ul muharrir: Beglayev Uchqun
Musahhih: Boltayev Nurali
Sahifalovchi va dizaynerlar: Normurodov Sarvar,
Sharipov Shoxruh

© Materiallar ko‘chirib bosilganda “Agrobiznes, fan va texnologiyalar” ilmiy-amaliy elektron jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas’ul hisoblanadi. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqolalar, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: licht-1989@mail.ru
Jurnalning telegram manzili: t.me/agrobiznes_elektronjurnal
Telefon raqami: +998939018320, +998934393000
Jurnal rasmiy sayti: https://www.agrobiznesjournal.uz

“Agrobiznes, fan va texnologiyalar” ilmiy-amaliy elektron jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 30.11.2024-yildagi №364/5-sonli qarori bilan 08.00.00-Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha, 08.05.2025-yildagi №370/5-sonli qarori bilan 06.00.00-Qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha “Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxati”ga kiritilgan.

“Agrobiznes, fan va texnologiyalar” ilmiy-amaliy elektron jurnali 2023-yil 23-maydan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669225** reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
Litsenziya raqami: №083688

Manzilimiz: Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko‘chasi, 2-uy